

KREDIT QAYTMASLIK XATARINI SUG'URTALASH BO'YICHA BOSH SUG'URTA SHARTNOMASI

№ 1000-44/240015

“6” 05 2024 yil

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 25.02.2022 yildagi №00045-sonli litsenzyasi asosida faoliyat yurituvchi “**Ishonch Sug'urta Kompaniyasi**” AJ QK (keyingi o'rinlarda - **Sug'urtalovchi**) nomidan **Ustav** asosida harakat qiluvchi Bosh direktor J.Z.Muxitdinov tomondan hamda bundan keyingi matnlarda “**Sug'urta qildiruvchi**” deb yuritiluvchi “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB (keying o'rinlarda – Sug'urta agenti) nomidan 07.02.2024 yilda berilgan 66-09/16-sonli **Ishonchnoma** asosida harakat qiluvchi Boshqaruv raisi o'rinbosari **O.R.Voxidov**, ikkinchi tomondan, birgalikda “**Tomonlar**” deb yuritiluvchilar, mazkur, Kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha bosh sug'urta shartnomasi (keyinchalik o'rinlarda - Sug'urta shartnomasi) ni quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMADAGI ATAMA (TUSHUNCHA)LAR

Sug'urtalovchi – umumiy sug'urta sohasining tegishli klasslari bo'yicha sug'urtani amalga oshirish uchun litsenzyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari.

Sug'urta qildiruvchi – Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan va Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kiruvchi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs – “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari (bank xizmatlari markazi, bo'linmalari).

Kredit oluvchi (-lar) – sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta mukofotini (sug'urta to'lovini) to'lovchi, Sug'urta qildiruvchi bilan tuzilgan Kredit shartnomasiga asosan Kredit oluvchi jismoniy shaxs (Sug'urta qildiruvchining mijozlari).

Kredit shartnomasi – Sug'urta qildiruvchi va Kredit oluvchi o'rtasida tuzilayotgan kredit olish bo'yicha tegishli shartnoma. Kredit shartnomasi doirasiga bank ishtirokida tuziladigan barcha turdagi kreditlar - kredit, mikroqarz, iste'mol, overdraft va boshqa turdagi kreditlar olish uchun tuziladigan shartnomalar kiradi.

Sug'urta shartnomasi – mazkur bosh Shartnoma bo'lib, unga ko'ra Sug'urtalovchi shartnomada belgilangan haq (sug'urta mukofoti) evaziga Shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchi) sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Anketa-Ariza – Ushbu Sug'urta shartnomasining barcha shartlari bilan tanishib chiqqanligini va o'z ixtiyoriy xohish-istagini bildirgan holda mazkur Sug'urta shartnomasiga butunlay qo'shilishini tasdiqlovchi hamda ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Kredit oluvchining huquq va majburiyatlarini qabul qiluvchi Kredit oluvchi tomonidan imzolangan hujjat (Offlayn kreditlar uchun). Anketa-Ariza onlayn yoki offlayn ravishda taqdim etilishi mumkin. Onlayn ravishda rasmiylashtiriladigan kreditlar bo'yicha ommaviy oferta qo'llaniladi.

Oferta (ommaviy oferta) – shartnomaning barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif.

Onlayn kreditlarni sug'urta qilish bo'yicha ommaviy oferta - sug'urtalashning barcha muhim shartlari va tartiblari o'zida aks ettirgan, cheklanmagan shaxslar bilan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida sug'urta shartnomasi tuzishga bo'lgan xohishini o'zida aks ettirgan taklif.

Ommaviy ofertaning namunaviy shakli sug'urta shartnomasining 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlanadi, sug'urta shartnomasining ajralmas qismi hisoblanib, bankning ilovasi orqali sug'urta shartnomalarini tuzishda amal qiladi.

Sug'urta puli (summasi) – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchining ushbu shartnoma bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlari hajmining chegarasini o'zida aks

ettiruvchi pul mablag'lari miqdori (Ushbu mablag' miqdori Kredit summasidan 125% dan kam bo'lmagan miqdorida hamda kredit shartnoma ta'minot summasida xar bir Kredit shartnomasi bo'yicha alohida belgilanadi).

Sug'urta mukofoti (badali) – Kredit oluvchi/sug'urta qildiruvchi yoki qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa shaxslar tomonidan ushbu Sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi.

Sug'urta polisi – ushbu Sug'urta shartnomasi tuzilganligini ushbu Sug'urta shartnomaning shartlariga ko'ra Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polislari Sug'urtalovchi tomonidan Kredit oluvchining tegishli murojaatnomasiga asosan xar bir Kredit shartnoma bo'yicha alohida rasmiylashtiriladi. Sug'urta polisi Sug'urtalovchining avtomatlashtirilgan axborot tizim orqali elektron ko'rinishda ham taqdim etilishi mumkin. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron ko'rinishda taqdim etilgan sug'urta polisi bilan qog'oz ko'rinishida tasdiqlangan sug'urta polisi bir xil yuridik kuchga ega.

Sug'urta hodisasi – Kredit oluvchi Sug'urta qildiruvchi oldida majburiyatni bajarmagan yoki qisman bajarmagan holat sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirish majburiyatini yuzaga keltirib chiqaradigan voqea. Bunda Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta shartnomasi shartlari va kutish davridan kelib chiqib Kredit oluvchi Sug'urta qildiruvchi oldida majburiyatni bajarmagan yoki qisman bajarmagan holat sodir bo'lishi bilan Sug'urta qildiruvchiga Kredit oluvchining barcha kredit qarzdorligi uchun sug'urta tovonini to'lashni amalga oshiradi.

Kutish davri – a) Kredit oluvchining Sug'urta qildiruvchi oldidagi Kredit shartnomasiga asosan majburiyatini qisman yoki umuman bajarmaganida sodir bo'ladigan, muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan (Kredit shartnomasining To'lov jadvalida belgilangan to'lovni qisman yoki umuman amalga oshirilmaganda) sanadan keyingi 90 (to'qson) kalendar kun.

Bunda ushbu shartnoma bo'yicha kutish davrida Sug'urtalovchi Kredit oluvchining Sug'urta qildiruvchi oldidagi barcha qarzdorligini (asosiy qarz shu jumladan muddati o'tgan asosiy qarz va ajratilgan kreditga hisoblanadigan foizlar shu jumladan muddati o'tgan foiz qarzdorligi hamda muddati o'tgan asosiy qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlarni) hisobga olgan holda sug'urta tovonini to'laydi.

Qarzdorning vafot etganligi, jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tayotganligi, muomala layoqatini butunlay yo'qotganligi sababli vujudga kelgan qarzdorliklar bo'yicha Sug'urtalovchi kutish davri o'tishini kutmasdan sug'urta qoplamasini to'lab berish huquqiga ega.

Sug'urta tovonini – Sug'urtalovchi ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararlarini - Kredit shartnomasiga asosan asosiy qarz va ajratilgan kreditga hisoblanadigan foizlar hamda muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlarni hisobga olingan miqdorda (xar bir Kredit shartnoma bo'yicha alohida) Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta puli doirasida to'laydigan pul mablag'lari miqdori (zararni qoplab berilgan mablag').

Kutish davrining 90 (to'qson) kalendar kuni o'tganida Sug'urtalovchi ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha Kredit oluvchining Sug'urta qildiruvchi oldidagi barcha qarzdorligini (asosiy qarz shu jumladan muddati o'tgan (o'tmagan) asosiy qarz va ajratilgan kreditga hisoblanadigan foizlar shu jumladan muddati o'tgan foiz qarzdorligi hamda muddati o'tgan asosiy qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlarni) hisobga olgan holda 10 (o'n) bank ish kuni ichida sug'urta tovonini to'laydi.

Zarar - Kredit oluvchi Kredit shartnomasiga asosan asosiy qarz va unga hisoblanadigan foizlar va muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblanadigan foizlarni Kredit shartnomasi shartlarida belgilangan tartibda va muddatlarda (o'z vaqtida) Sug'urta qildiruvchiga qoplamagan (to'lamagan) pul miqdori.

Zarar ko'rilgan sana – kutish davri o'tganidan so'ng, birinchi kalendar kuni.

Sug'urta muddati – Sug'urtalovchi ushbu sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan davr. Sug'urta muddati har bir Kredit shartnomasi bo'yicha alohida Kredit shartnomasi muddatiga mutanosib ravishda (sug'urta polislari) belgilanadi.

To'lov sanasi – Kredit shartnomasida (xar bir Kredit shartnoma bo'yicha alohida) belgilangan tartibda (jadval asosida) Kredit oluvchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga Kredit (asosiy qarz va ajratilgan kreditga hisoblanadigan foizlar hamda muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlarni hisobga olingan holda) so'ndirish uchun amalga oshiriladigan to'lov muddati.

Franshiza – Sug'urta qildiruvchining ko'rgan zararini bir qismi bo'lib, franshizada belgilangan miqdor, zarar uchun to'lanadigan sug'urta to'voni miqdoridan chegirib (olinib) qolinadi. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha franshiza qo'llanilmaydi.

Subrogatsiya – Sug'urta qildiruvchining Kredit oluvchiga nisbatan da'vo huquqi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchining ko'rgan zarari yuzasidan to'lab berilgan sug'urta to'voni (qoplab berilgan mablag') doirasida Sug'urtalovchiga o'tishi.

Fors-major – favqulodda va oldindan ko'rilmagan tavsifda bo'lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadigan, hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat.

II. SHARTNOMA MOHIYATI

2.1. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchiga Kredit shartnomasiga asosan ajratilgan kredit mablag'larini (asosiy qarz) va kredit ajratilganligi yuzasidan hisoblanadigan foizlar va muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlar, Kredit oluvchi Sug'urta qildiruvchiga qoplamaganligi (to'lamaganligi) natijasida sug'urta puli doirasida sug'urta polisiga asosan to'liq yoki qisman qaytarmasligi bo'yicha Sug'urta qildiruvchining zarar ko'rganligi holati yuzasidan sug'urta himoyasini taqdim etadi va ushbu Sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug'urta qildiruvchiga uning birinchi talabiga muvofiq sug'urta to'vonini to'lab beradi.

2.2. Mazkur sug'urta shartnomasidan sug'urta qildiruvchi tomonidan onlayn va oflayn ravishda taqdim etiladigan barcha turdagi (maqsadli/maqsadsiz) kredit (kredit, mikroqarz, iste'mol, overdraft, davlat dasturlari doirasida beriladigan kreditlar va boshqalar) lar bo'yicha tuziladigan kredit shartnomalar uchun sug'urta himoyasini taqdim etishda foydalaniladi.

III. SUG'URTA PULI VA JAVOBGARLIK CHEGARASI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha sug'urta puli – Kredit oluvchi(-lar) va Sug'urta qildiruvchi (uning filiallari) o'rtasida tuzilgan Kredit shartnomasining ta'minot summasidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda sug'urta puli kredit shartnomasi kredit qiymatining 125% kam bo'lmagan mablag'ni tashkil etadi.

IV. SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

4.1. Sug'urta mukofot summasi Kredit shartnomaning ta'minot miqdori summasidan yillik 1 (bir) foiz miqdorida hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.08.2021 - yildagi 527 - sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.08.2022 - yildagi 457 - sonli qarori asosidagi ta'lim kreditlari uchun 0.5 (nol butun o'nda besh) foiz miqdorida hisoblanadi.

Sug'urta mukofoti miqdorining summasi va to'lash tartibi ushbu Sug'urta shartnomasida belgilanadi. Bunda, sug'urta mukofoti ushbu Sug'urta shartnomasiga qo'shilish bo'yicha Anketa imzolangan yoki ommaviy offerta akseptlangan kuni Kredit oluvchi tomonidan 1 (bir) bank ish kuni ichida Sug'urtalovchining hisobvarag'iga Kredit shartnomasi muddatiga mos ravishda to'liq to'lanishi shart.

Sug'urtalovchi tomonidan Anketa-arizasiga (-lariga) asosan (onlayn/oflayn) har bir Kredit shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga alohida sug'urta polisi taqdim etilishi lozim.

4.2. Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urtalovchining javobgarligi haqiqatda to'langan Sug'urta mukofoti miqdoriga mutanosib ravishda belgilanadi.

4.3. Kredit oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar muddatidan avval bajarilganda, to'langan sug'urta mukofoti qonunchilikda belgilangan tartibda mijozga qaytarib beriladi.

V. SUG'URTA SHARTNOMASINING AMAL QILISH MUDDATI VA SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

5.1. Ushbu Sug'urta shartnomasi Taraflar tomonidan imzolaganidan so'ng kuchga kiradi.

5.2. Kredit oluvchi ushbu Sug'urta shartnomasiga Anketa-ariza imzolagan sanadan yoki ommaviy offertani akseptlaganidan so'ng qo'shilgan hisoblanadi va Sug'urta shartnomasining tarafi, ya'ni Kredit oluvchi sifatida ishtirok etadi.

Mazkur Sug'urta shartnomasi doirasida kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalangan majburiyatlar bo'yicha Kredit shartnomalarining amal qilish muddati davomida va Kredit oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

5.3. Qarzdor tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- shartnoma shartlarini Qarzdor tomonidan boricha va to'liqligicha qabul qilish;
- o'zaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida taraflar shartnoma shartlariga tayanish huquqini beradi;

- shartnomadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini beradi;

- ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370, 927-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

5.4. Mazkur Sug'urta shartnomasi doirasida Sug'urta polisi rasmiylashtirish bo'yicha Kredit oluvchi Sug'urtalovchiga murojaat qiladi (shu jumladan elektron aloqa orqali) va quyidagi hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etadi:

- Sug'urta qildiruvchi bilan Kredit oluvchi o'rtasida tuzilgan Kredit shartnomasi nusxasi;

- Anketa-ariza;

- Pasport nusxasi.

5.5. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchining barcha filiallari bilan o'zaro ushbu Sug'urta shartnomasining mohiyati va shartlaridan kelib chiqqan holda hamkorlik faoliyatini olib boradilar.

5.6. Ushbu Sug'urta shartnomasi shartlariga asosan Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisobvarag'iga Kredit oluvchi/sug'urta qildiruvchi yoki qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa shaxslar tomonidan to'liq to'lab berilganidan so'ng Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kiradi va Sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta polislari Kredit oluvchining Kredit shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlari to'liq tugagunga qadar amal qiladi.

5.7. Offlayn ravishda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisobvarag'iga belgilangan tartibda kelib tushganidan va Kredit oluvchi yoki Sug'urta qildiruvchi (Sug'urta qildiruvchining tegishli filiali) tomonidan ushbu Sug'urta shartnomasining 5.4 bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar Sug'urta qildiruvchi (Sug'urta qildiruvchining tegishli filialiga) taqdim etilganidan so'ng 2 (ikki) soat ichida sug'urta polisi rasmiylashtirilib, Sug'urta qildiruvchining tegishli filialiga yetkazib berilishi lozim.

Agar Sug'urtalovchi mazkur bandning birinchi qismida ko'rsatib o'tilgan muddatda sug'urta polisining asl nusxasini taqdim etish imkoniga ega bo'lmasa, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan va rasmiylashtirilgan elektron shakldagi polisini taqdim etiladi va Sug'urtalovchi elektron polis taqdim etilgan sanadan boshlab 7 kundan oshmagan muddatda sug'urta polisining asl nusxasini Sug'urta qildiruvchiga (Sug'urta qildiruvchining tegishli filiali) taqdim etadi.

5.8. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali rasmiylashtiriladigan sug'urta polislari (E-polis) sug'urta qildiruvchining IP so'roviga asosan elektron ravishda yuboriladi.

5.9. Sug'urta polisi yo'qotilganda Kredit oluvchi Sug'urtalovchiga yozma ariza bilan murojaat qiladi va Sug'urtalovchi tomonidan 2 (ikki) kun muddatda sug'urta polisining dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi) rasmiylashtirib beriladi.

Sug'urta polisining dublikati taqdim etilishi bilan yo'qotilgan sug'urta polisi o'z kuchini yo'qotadi.

5.10. Ushbu Sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek bekor qilish yoki to'xtatish taraflar Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchining yozma xati orqali ushbu Sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuv shartnomasi tuzish orqali amalga oshirilishi shart, aks holda ular haqiqiy emas deb hisoblanadi.

5.11. Mazkur Sug'urta shartnomasi quyidagi holatlarda to'xtatiladi:

a) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Kredit oluvchi oldidagi majburiyatlarni to'liq hajmda bajaranda;

b) Taraflarning yozma kelishuviga ko'ra, ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha bajarilmagan majburiyatlar bo'lmagan taqdirda.

VI. SUG'URTA HODISASI

6.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Kredit oluvchi tomonidan kredit shartnomasining to'lov jadvalida belgilangan to'lovlarni Sug'urta qildiruvchiga belgilangan muddatda va miqdorda to'lanmaganligi (qoplanmaganligi) sug'urta hodisasi hisoblanadi va quyidagi shakllarda ifodalanadi:

6.1.1 Kredit oluvchi tomonidan kredit shartnomasining to'lov jadvalida belgilangan to'lovlarni belgilangan muddatda va miqdorda to'lanmaganligi (qoplanmaganligi) 90 kalendar kunidan oshsa (shartnomaning kutish davri) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchining birinchi talabiga binoan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini, ya'ni Kredit oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi barcha qarzdorligi (kredit asosiy qarzi, shu jumladan muddati o'tgan (o'tmagan) asosiy qarz, ajratilgan kreditga hisoblanadigan foizlar, muddati o'tgan foiz qarzdorligi hamda muddati o'tgan asosiy qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlar) ni to'lab berish (muddatidan oldin to'lash) majburiyatini oladi.

6.2. Sug'urtalovchi quyidagi hollarda sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqiga ega:

a) Kredit oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti umuman to'lamaganda;

b) Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi amal qilgan davrda kredit shartnomasi muddatini uzaytirish (shu jumladan bir tomonlama) bo'yicha Sug'urtalovchini 30 kun ichida ogohlantirmaganda;

v) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganda.

VII. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnomani 6.1.1. bandida ko'rsatib o'tilgan sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchi yoki uning filiallari shu kunning ertasidan boshlab yozma, elektron yoki xabar berishning boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda Sug'urtalovchi yoki uning filiallariga sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida xabar beradi. Bunda Kredit shartnomasi va berilgan sug'urta polisiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchining tegishli filiallarining mas'ul xodimlari o'zaro bog'lanib, mazkur Sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq ish tutishi lozim.

7.2. Sug'urta qildiruvchi arizada Kredit oluvchi Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlarini kechiktirgan muddati 90 (to'qson) kalendar kunidan oshganligi, Kredit oluvchining muddati o'tgan asosiy qarz va muddati o'tgan foiz qarzdorligi hamda muddati o'tgan asosiy qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlar miqdori bayon qilinib, sug'urta tovonini to'lash bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

7.3. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga taqdim etadigan arizaga sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- sug'urta qoplamasini to'lab berish bo'yicha murojaat ariza (ma'lumot);

- Kredit oluvchining Kredit shartnomasi bo'yicha muddati 90 kundan oshgan qarzdorligi borligi to'g'risida Sug'urta qildiruvchi tomonidan tasdiqlangan ma'lumot (bank hisobvarag'lari qoldig'i. (12505, 16377, 16309.....)).

- Kredit qarzdorligini undirish yuzasidan bank tomonidan qilingan harakatlarni tasdiqlovchi hujjatlar (ogohlantirish xatlari (to'lov kvitansiyasi bilan)).

7.4. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqadi va 5 (besh) bank kuni ichida sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki yo'qligi to'g'risida dalolatnoma tuzadi. Sug'urta hodisasi yuz berganligi aniq bo'lsa, sug'urta qoplamasi (tovoni) miqdorini aniqlaydi, hamda sug'urta hodisasi tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi, dalolatnoma 2 (ikki) nusxada tayyorlanadi va Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi taraflarning mas'ul xodimlar tomonidan imzolanadi hamda Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi sug'urta tovonini to'langanligi

(Sug'urta qildiruvchining talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tganligi) to'g'risida Kredit oluvchiga yozma ravishda xabar beradilar.

7.5. Ushbu Sug'urta shartnomasi talablariga ko'ra belgilangan tartibda sug'urta tovonini aniqlangan taqdirda tuzilgan va tomonlar tasdiqlangan dalolatnomaga ko'ra 3 (uch) bank kuni ichida Sug'urta qildiruvchiga ushbu shartnomani 7.3-bandiga asosan taqdim etilgan xujjatga asosan kunlik qo'shib borilgan qarzdorlikni hisoblagan (ma'lumot taqdim etilgan sanadan qancha kun o'tgan bo'lsa shuncha kunlik qarzdorligi umumiy qarzdorligiga qo'shilgan) holda sug'urta tovonini to'lab beriladi. Bunda sug'urta tovonini to'lab beriladigan kunigacha umumiy qarzdorlikka qo'shib boriladigan mablag'lar (Kredit shartnomaning shartlariga asosan) Sug'urtalovchi tomonidan hisoblanadi.

7.6. Sug'urtalovchi tomonidan to'lab berilgan sug'urta tovonini Kredit oluvchining Sug'urta qildiruvchi oldidagi barcha qarzdorligini qoplab sug'urta tovonini ortib qolgan taqdirda Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining sug'urta tovonini o'tkazib berilgan hisobvarag'ga qaytariladi.

7.7. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori va rad etish sabablari asoslantirilgan dalil-isbotlari bilan 3 (uch) ish kundan kechiktirmasdan Sug'urta qildiruvchiga xabar qilishi shart.

7.8. Sug'urta tovonini to'langanidan so'ng, sug'urta tovonini (qoplab berilgan mablag') doirasida qoplangan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Kredit oluvchidan da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urta qildiruvchi yuridik kuchga ega va Kredit bo'yicha faqat kredit yig'majildida mavjud bo'lgan amaldagi barcha hujjatlarni Sug'urtalovchiga topshirishi shart.

7.9. Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchining ko'rgan zarari uchun sug'urta tovonini to'lab berilgandan so'ng, har qanday manbalardan kompensatsiya tarzida kelib tushgan pul mablag'lari Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

a) Sug'urtalovchi kompensatsiya tarzida kelib tushgan mablag'dan sug'urta qildiruvchining ko'rgan zarari uchun to'lagan sug'urta tovonini va shunga bog'liq xarajatlari miqdoridagi summani oladi;

b) Sug'urta qildiruvchining ko'rgan zarari uchun to'lagan sug'urta tovonini to'liq qoplanganidan so'ng kompensatsiya tarzida kelib tushgan qolgan barcha mablag'lar Kredit oluvchining tegishli hisob varag'iga yo'naltiriladi.

7.10. Mazkur sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan barcha kompensatsiya mablag'lari Sug'urtalovchining hisob varag'iga sug'urta qildiruvchi tomonidan 3 kun ichida o'tkaziladi va Sug'urtalovchi tomonidan taqsimlanadi.

7.11. Zararni tasdiqlovchi - asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar va muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblanadigan barcha foizlar) qoplanmasligi (to'lamasligi) va Kredit shartnomasiga asosan Kredit oluvchining ma'lumot taqdim etilgan sanaga umumiy qarzdorligi hamda ssuda qarzdorligiga kunlik qo'shib boriladigan foizlar hisob-kitoblari bayon etilgan tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilish Sug'urta qildiruvchi zimmasiga yuklatiladi.

7.12. Sug'urta shartnomasini barcha shartlarini amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni qoplash Kredit oluvchining zimmasiga yuklatiladi.

VIII. SUBROGATSIYA

8.1. Sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun Kredit oluvchi(-lar)dan talab qilish huquqi to'langan summa (tovon) doirasida Sug'urtalovchiga o'tadi.

Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug'urta qildiruvchi va Kredit oluvchi(-lar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

8.2. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

8.3. Sug'urtalovchi qarzni undirishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga asosan amalga oshiradi.

IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

- mazkur Sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida Kredit shartnoma(-lari) bo'yicha Kredit oluvchi(-lar) tomonidan bajarilishini monitoring qilish;
- monitoring jarayonida Kredit shartnoma (-lar) shartlari Kredit oluvchi(-lar) tomonidan buzilganligi to'g'risida Kredit oluvchini(-larni) ogohlantirish.
- sug'urta to'lovni to'lab berilganidan so'ng, Kredit oluvchidan zararni undirib olish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda da'vo qilish huquqini amalga oshirish;
- Qarzdorlardan to'langan pul mablag'larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to'lov tizimi orqali qarzdorlarga tegishli bo'lgan har qanday turdagi plastik kartalaridan ularning roziligisiz pul mablag'larini undirishi.

9.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- Sug'urtalovchi ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga sug'urta pulini to'lash va Kredit oluvchilarning Kredit shartnomalari yuzasidan barcha moliyaviy majburiyatlari bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldida solidar javobgar bo'lish;
- sug'urta polislarida Sug'urta qildiruvchini Naf oluvchi (Benefitsiar) sifatida ko'rsatish;
- ushbu shartnomaning 5.7-bandida belgilangan muddatda Sug'urta qildiruvchi (sug'urta qildiruvchi filiali)ga sug'urta polislarini yetkazib berilishini ta'minlash;
- ushbu Sug'urta shartnomaga muvofiq taraflarning hamkorlik faoliyatini ta'minlash maqsadida Sug'urta qildiruvchi bilan Sug'urtalovchi filiallar va mas'ul xodimlari ushbu shartnoma shartlari to'liq amalga oshirilishini ta'minlash;
- sug'urta shartnomaga (ushbu shartnoma) asosan Sug'urtalovchi tomonidan taqdim etiladigan sug'urta polis, anketa-ariza va ommaviy offerta matnini Sug'urta qildiruvchi bilan kelishish;
- ushbu shartnoma shartlari bo'yicha Kredit oluvchini tanishtirib tushuntirishlar berish.
- ushbu Sug'urta shartnomasiga asosan Sug'urta qildiruvchini Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qilish shartlari bilan tanishtirish va sug'urta polislarda belgilangan shartlarini Sug'urta qildiruvchi bilan kelishish;
- sug'urta qildiruvchi yoki Kredit oluvchi sug'urta polisini yo'qotganda sug'urta polisi dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi)ni undan (aybdor tomonidan) ushbu shartnomada belgilangan miqdorda jarima undirgan holda sug'urta polisining dublikatini berish;
- sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida Sug'urta qildiruvchi va Kredit oluvchiga sug'urta qilish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- sug'urta hodisasi yuzasidan Sug'urta qildiruvchidan unda mavjud bo'lgan Kredit oluvchining faoliyatiga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni (agarda Sug'urta qildiruvchida bor bo'lsa) jamlab olib, sug'urta hodisasi to'g'risida tan olish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng 1 (bir) bank ish kuni ichida sug'urta tovonini sug'urta qildiruvchiga to'lab berish. Bunda Sug'urta qildiruvchi Kredit oluvchi qilingan xarajatlarning qoplanishi uchun undiruvni Kredit shartnomasi bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilgan garov mol-mulkklariga, uchinchi shaxs (lar) taqdim etgan kafillik va kafolatlariga qaratgan yoki qaratmaganligidan qat'iy nazar Sug'urtalovchi sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga to'lab berish;
- sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan va belgilangan tartibda hujjatlarni taqdim qilganidan so'ng, Sug'urta qildiruvchi bilan sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzish va sug'urta tovonini to'lab berish, yoki unga sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida, rad etish sabablari ko'rsatilgan yozma xabarnoma yuborish;
- moliyaviy hisobotlarini Sug'urta qildiruvchiga taqdim etish.

9.3. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

- sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta qilish shartlari bilan tanishish;
- sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida Sug'urta shartnomasiga doir savollarga Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;
- sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu Sug'urta shartnomasiga qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va sug'urta shartnomasi

shartlariga muvofiq mazkur Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;

- sug'urta hodisasi yuz berganda ushbu shartnomada belgilangan tartibda Sug'urtalovchiga Sug'urta tovonini to'lash bo'yicha murojaat qilish;

- sug'urtalovchi Sug'urta tovonini to'lashni rad qilishi bo'yicha sudga shikoyat qilish

- Sug'urtalovchi ushbu Shartnomada belgilangan muddat va hajmlarda Sug'urta tovonini to'lashni rad etilganda ushbu Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to'xtatish;

- sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta polisleri bo'yicha Sug'urtalovchidan o'z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;

- sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga Sug'urta qildiruvchining skoring faoliyatidan kelib chiqib kredit yig'ma jildidagi mavjud bo'lgan hujjatlarni taqdim qilish;

- sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlarda, sug'urta polisi dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi)ni olish;

- sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida kerakli ma'lumotlarni talab qilish;

- kredit yig'majildida mavjud bo'lmagan hujjatlarni taqdim etishni rad etish;

- sug'urtalovchini moliyaviy ko'rsatkichlarini o'rganib borish;

- sug'urta qildiruvchi veb saytida e'lon qilingan to'lovga qobiliyatlilik normativlari talablar bajarilmayotganligi aniqlansa yangi sug'urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to'xtatish.

9.4. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

- Sug'urta hodisasi bo'yicha ushbu shartnoma shartlari va tartibiga asosan sug'urtalovchiga ma'lum qilish;

- Sug'urta shartnomasiga asosan kredit oluvchi Kredit shartnomasi bo'yicha xarajatlarni qoplash bilan bog'liq Sug'urta qildiruvchida mavjud bo'lgan ma'lumot va axborotlarni taqdim qilish;

- Kredit berish muddatini va kredit qarzdorliklarini qaytarish davrini o'z ichiga olgan Kredit shartnomasi muddatlarini uzaytirilganda (shu jumladan bir tomonlama) Sug'urtalovchiga 10 (un) kun ichida yozma ravishda xabar berish (shu jumladan elektron pochta orqali);

- Kredit oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi (qoplanishi) kechiktirilsa, Sug'urtalovchi yozma murojaatiga asosan har oyda bir marotaba ma'lumot berish;

- Sug'urta tovonini to'langanligi to'g'risida kredit oluvchi va Sug'urtalovchiga yozma ravishda ma'lumotnoma uning so'roviga ko'ra taqdim etish.

9.5. Kredit oluvchining majburiyat va huquqlari

- Mazkur Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanishidan oldin sug'urta shartnomasi shartlari bilan tanishish;

- Sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida sug'urta shartnomasiga doir savollarga Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;

- Mazkur Sug'urta shartnomasiga asosan Anketa-arizani taqdim etgan kundan boshlab yoki offera tasdiqlaganidan so'ng 1 (bir) bank ish kunida Anketa-arizada ko'rsatilgan miqdorida sug'urta mukofotini to'lab berish;

- Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni rad qilishi bo'yicha sudga shikoyat qilish;

- Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi jarima to'lagan holda, sug'urta polisi dublikati (hujjatning asli bilan teng huquqli nusxasi)ni olish.

- Sug'urta hodisasi ehtimoli bo'lishini oldini olish uchun o'z hisobidan barcha choralarni hamda belgilangan tartibda zararlarni kamaytirish uchun mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rish.

- Sug'urta hodisasi bo'yicha 10 kun muddatida Sug'urtalovchiga ma'lum qilish, bunda Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urtalovchiga Sug'urta qildiruvchi ham ma'lum qilsa bo'ladi.

- Sug'urtalovchi o'zi to'lagan pul mablag'larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to'lov tizimi orqali qarzdorlarga tegishli bo'lgan har qanday turdagi plastik kartalaridan ularning roziligisiz pul mablag'larini undirishga Qarz oluvchi ofertani akseptlashi va/yoki ariza/anketani imzolashi bilan o'z roziligini bildirganligini anglatadi.

X. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Mazkur sug'urta shartnomasining shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

10.2. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan barcha bahs va munozaralar o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq tegishlilik bo'yicha Sug'urta qildiruvchi yuridik manzilida joylashgan sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

10.3. Ushbu shartnoma doirasida tomonlar o'z majburiyatlarini yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) oqibatida bajarmagan bo'lsalar javobgarlikdan ozod etiladilar. Fors-major holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasining tegishli organlari va tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan hujjatlar taqdim etilishi zarur. Tomonlar yengib bo'lmaydigan kuchlar ta'siri ehtimoli yuzaga kelsa, bunday holatlar ro'y berishi va davomiylik ehtimoli borligi bo'yicha boshqa tomonni 5 (besh) ish kuni davomida xabardor qilishi shart.

XI. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Mazkur Sug'urta shartnomasiga muvofiq tomonlarning yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga huquq va majburiyatlarni topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

11.2. Sug'urta shartnomasiga barcha qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritish tomonlarning roziligi asosida sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuvini tuzish orqali amalga oshirilishi shart. Ushbu shartnoma shartlariga bir tomonlama o'zgartirish kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

11.3. Ushbu Sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

11.4. Ushbu sug'urta shartnomasi 2 (ikki) nusxada tuzilgan va imzolangan bo'lib Sug'urtalovchi hamda Sug'urta qildiruvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri bir xil huquqiy kuchga ega.

11.5. Sug'urta shartnomasi tomonlarning vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

11.6. Mazkur Sug'urta shartnomasining va (yoki) uning bir qismining haqiqiy emas deb topilishi, o'z o'zidan haqiqiy emas deb e'tirof etilishi (topilishi), tuzilmagan deb topilishi, shartnomaning haqiqiy hisoblanadigan qismiga ta'sir qilmaydi.

TOMONLARNING YurIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Sug'urtalovchi”

“Ishonch Sug'urta Kompaniyasi” AJ QK
Manzil: 100060, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 22/2 uy.
x/r: 20216000300600298002
«Biznesni Rivojlantirish Banki» Bosh ofisi
MFO: 01037, STIR: 201929119
Tel.: (+998) 95 342-45-45,
90 998-03-01.
Faks: (+998) 71 238-69-75.
Bosh direktor



J.Z. Muxitdov

“Sug'urta qildiruvchi”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Manzil: Toshkent shahar, A.Navoiy ko'chasi, 18-A uy
H/v: 19909 0006 0000 1037 001
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
MFO: 01037, STIR: 206 916 313,
OKED: 64190, tel.: 78-150-93-39



Boshqaruvi rasi o'rinbosari

O.R. Voldov
Bosh buxgalter
X.T. Afaxmudov

X.T. Afaxmudov